

## GASTRONOMIK TURIZMNING O'ZBEKISTONDAGI AHAMIYATI

*Maksudova Shahlo**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi*

**Annotatsiya.** maqolada O'zbekistonda Gastronomik turizmning o'rni va Gastronomik turizmni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** gastronomic, turizm, milliylik, estetik, taom

## THE IMPORTANCE OF GASTRONOMIC TOURISM IN UZBEKISTAN

*Maksudova Shahlo**student of International Islamic academy of Uzbekistan*

**Annotation.** This article examines the role of gastronomic tourism in Uzbekistan and the prospects for the development of gastronomic tourism.

**Key words:** gastronomic, tourism, nationality, aesthetic, food

## KIRISH

O'zbekistonda va jahoning bir qator mamlakatlarida turizm yuqori darajada rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib kelmoqda. O'zbekistonda ilg'or rivojlangan turizm sohalari kabi gastronomik turizm ham rivojlanib borayapti. Gastronomik turizm bu yangi ta'm yangi estetik did bilan qilingan taomlarni tatib ko'rish hisoblanadi. Ya'ni biror bir davlatga sayohat uchun borayotgan inson u yerda hech qaysi davlatida tanovvul qilmagan yangicha uslubda qilingan taomlarni yeyishni xohlaydi. Har bir davlatning o'zining tarixi va an'analari bo'lgani kabi gastronomik turizmning ham o'ziga xos jihatlari ko'p hisoblanadi. Mana shu o'ziga xos jihatlari tufayli har bir davlatning gastronomik turizmi har xil rivojlanadi. Barcha taomlarning rivojlanishida quyoshli o'lkalarining ham ahamiyati katta hisoblanadi. O'zbekistonning xususan boshqa davlatlarning rivojlanishida dasturxonlarning turli-tumanligi muhim o'rin tutadi. Bu ham har bir davlatning turizm rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shunday taomlar borki ular faqat dasturxonni bezash uchun qo'yiladi. Ularning ko'rki esa o'zgacha uslub bag'ishlaydi.

## ASOSIY QISM

2019-yilda Respublikamizning turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan konsepsiysi qabul qilindi. Bu konsepsiya 2019-2025-yillarga mo'ljallangan. Konsepsiya turizm industriyasini rivojlantirish, uning roli ahamiyatini oshirish va iqtisodiyotga hissa qo'shish, xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini oshirish kabilar shuningdek, butun turizm sanoatini rivojlantirish, turizm industriyasini

modernizatsiya qilish, gastronomik turizmni rivojlantirish, shuningdek, sohani har tomonlama rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani tartibga solish, muvofiq xorijiy mehmonlarga xizmat ko‘rsatish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, gastronomik sanoatni yaratish, mehmonxonalarni sanitariya va gigeniya talablariga javob berishi ko‘zda tutildi.

Gastronomik turizmni turizmning alohida turi sifatida milliy oshxonani bevosita rivojlantirish va targ‘ib qilishga qaratilgan turistik estetik diqqatga sazovor joy sifatida ko‘rish mumkin. Mashhur o‘zbek oshxonasi markaziy mintaqadagi eng mazali taomlardan biri hisoblanadi. Asrlar davomida o‘zbek oshxonasiga boshqa xalqlarning ko‘plab an’anaviy taomlari kirib kelgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonning milliy taomlariga chet ellik sayyoohlarning qiziqishi juda ham kuchlidir. Bu taomlar butun dunyodan tashrif buyuruvchilarni o‘ziga e’tiborini tortgan. Bu noyob oshxonadan bahramand bo‘lish va tanishishga qiziquvchilar juda ko‘pdir. So‘nggi yillarda gastronomik turizm O‘zbekistonda keng tarqalgan bo‘lib, milliy oshxonamizga mansub palov mamlakatning taniqli brendiga aylandi.

Xususan, 2018-yilda “National Geographic” jurnali o‘tkazgan “National Geographic Traveler” mukofotida “Gastronomik turizm” nominatsiyasi bo‘yicha O‘zbekiston birinchi o‘rinni egalladi. Tanlovda ishtirot etgan respondentlar O‘zbekiston uchun 34%, Italiyaga 21%, Ozarbayjonga 17%, Fransiyaga 13%, Janubiy Koreyaga 5% ovoz bergen. Bundan ko‘rinib turibki, o‘zbek taomlari barchani o‘ziga jalb qilgan.

Gastronomik turizm barcha turistik sayohatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Gastronomik turizm faqat estetik taomlarni tatib ko‘rish emas, balki borayotgan joyidagi go‘zallik bilan tanishishdir. Masalan, ziyorat qilish maqsadida, mahalliy oshxona bilan tanishadi. Bundan kelib chiqadiki, pazandachilik turizm sektorining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Gastronomik turizmning o‘ziga xosligi, bu haqiqatdan ham har bir mamlakat mintaqasida turizmning ushbu turi uchun o‘z resurslari mavjudligidir. Gastronomik turizm mavsumiy dam olish xususiyatiga ega emas, yilning istalgan vaqt uchun mos hisoblanadi. Ya’ni mavsumga qaramaydi har doim faoliyat olib boraveradi.

Hozirda turistlarning oziq-ovqat va ichimliklar uchun xarajatlari, jami sayohat xarajatining taxminan 25%ni tashkil qiladi, ya’ni talab doim mavjuddir. Shu va quyidagi sabablar, gastronomik turizmning rivojlanishi uchun asos bo‘lmoqda.

-global gastronomik tendensiyasi hisoblangan – sog‘lom ovqatlanishning rivojlanishi;

-ovqat tayyorlanadigan hududda yetishtiriladigan tabiiy mahalliy meva-sabzavotlardan foydalanish;

-aholi orasida tez tamaddi qilishning (фаст фоод) keng miqyosda rivojlanishiga javoban sekin ovqatlanish (slow food) harakatining paydo bo‘lishi;

-televideniyada oshpazlik bo'yicha shou dasturlarni keng namoyish etish, gastronomik mavzuda kino va telefilmlarning tasvirga olinishi va ommalashtirilishidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi bilan, turizm tarmog'ini iqtisodiyotning strategik yo'nalişlaridan biri sifatida rivojlantirish boshlandi. Shu o'rinda gastronomik turizmga ham katta e'tibor qaratilib, Gastronomik turizm assosiasiysi, Barista Assotsiatsiya kabi qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlarning tashkil etilishi va ular ko'magida agroturizm, gastronomik festival va mahorat darslarining tashkil etilishi sohaning rivoji uchun ulkan turtki bo'ldi.

O'zbekistonda gastronomik turizmni rivojlantirish uchun 2022-yil 20-dekabrda Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida birinchi gastronomik festival va milliy taomlar yarmarkasi bo'lib o'tdi. Gastronomik festival doirasida 20 dan ortiq turli nozne'matlar namoyish qilindi. Bu ham O'zbekistonimiz milliy oshxonasining naqadar betakror ekanligini ko'rsatdi.

Gastronomik turistik faoliyat sayyoohlarning sayohatini o'ziga xos qilish uchun markaz bo'lib, borar joyning ajralib turishiga yordam beruvchi ajoyib joy hisoblanadi. Bundan tashqari, oziq-ovqat va hosil festivallari kabi gastronomik tadbirlar ham o'tkazish turistlarni o'ziga e'tiborini tortuvchi joy hisoblanadi.

Shuningdek O'zbekistonda ilk bor 2022-yilning 5-oktyabr kuni Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida anor festivali o'tkazildi. Tadbir Yevropa Ittifoqi komissiyasi, Jahon banki, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, vazirlik huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi, Surxondaryo viloyati xokimligi, O'zbekiston Anorchilar assatsiatsiyasi, "Annexure Financial Solutions" konsalting kompaniyasi va "ShirinMeva" jurnali tashkilotchiligidagi o'tkazildi. Festival munosabati bilan Surxondaryo viloyatiga juda ko'plab turistlar tashrif buyurishdi va festival ichki turizmni ham rivojlanishiga olib keldi.

O'zbekistonda gastronomik turizmni rivojlantirish uchun, turizm xizmatlarini kengaytirish uchun, mehmonxonalar, restaran, barlarga mablag'lar ajratilmoqda. O'zbekistonda ovqatlanish korxonalarining yangi tiplari mavjud emas. Lekin milliy oshxonaga ega bo'lgan resataranlar mavjud bo'lib, ularda turkcha, italyancha, xitoycha restaranlari bilan mashhurdir. Har bir yerda ularning narxi har xil bo'ladi. Biror yerda qimmat bo'lsa, biror yerda arzon bo'ladi.

## XULOSA

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, turistik xizmatlarni reklama qilish, iste'molchilar bilan doimiy aloqani ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lgan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish mamlakatimizda quiyi darajada bo'lib, ulardan foydalanishni oshirish turistik xizmatlar bozori barqarorligini hamda rivojlanishini

ta'minlashga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda turizm sohasida amalga oshirilayotgan keng miqyosidagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi turizm sohasini milliy iqtisodiyotning strategik sektori sifatida jadal rivojlanishiga, 2025-yilga kelib sohaning YaIM dagi ulushining 5,8 foizga yetishini ta'minlab berishi kutilmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.R. Usmanov Turizm geografiyasi: o'quv qo'llanma.- Samarqand "SamDu", 2020. 281 b.
2. <https://uzreport.news/society/ozbekistonda-ilk-bor-anor-festivali-otkazildi>
3. <https://www.unwto.org/gastronomy-wine-tourism>
4. <https://uzbektourism.uz/>
5. <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasida-turizmni-zhadal-rivozhlantirishga-oid-qoshimcha-chora-tadbirlar-togrisida>